Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 974.321.09:852
ORCID: 0009-0009-5109-109X

SURXON VOHASIDA YOQILG'I-ENERGETIKA SOHASI KADRLARI MASALASI (1925-1960-YILLAR)

Donayev Jasurbek Shavkat o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) yo'nalishi
E-mail: djasur99@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning XX asr birinchi choragidan, XX asrning 60-yillarigacha (sovetlar davri) bo'lgan davr oralig'ida Surxon vohasidagi yoqilg'i va energetika sohalaridagi kadrlar muammolari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar arxiv materiallari va adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqotning maqsadi Surxon vohasi yoqilg'i energetika sanoatining XX-XXI asr boshlaridagi faoliyatini, tizimdagi islohotlar jarayonini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy tahlil, og'zaki tarix, xronologik izchillik va hududiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Vohada elektr energiyasini shakllanishi asosan chegara hududlardagi harbiy qismlarni, daryo portini, temir yo'l stansiyalarni, ruslar yashaydigan aholi manzilgohlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash, shuningdek, mudofaa salohiyatini oshirish, yer-suv islohoti haqidagi ma'lumotlar dalillangan. Vohadagi elektr tarmoqlarni ko'paytirishdan maqsad, yangi yerlarni ochish, yangi o'zlashtirilgan yerlarga suv chiqarish maqsadida suv nasoslarini elektr bilan ta'minlash, asosiy e'tibor paxta xom-ashyosi bilan bog'liq jarayonlarga taalluqli ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Energetika, yoqilg'i, neft, sanoatlashtirish, Xovdok, Uch qizil, Kakaydi, Xalq Komissarlari, Energetika mustaqilligi.

КАДРОВЫЙ ВОПРОС В ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ (1925-1960 гг.)

Аннотация: В статье на основе архивных материалов и литературы анализируются кадровые проблемы и недостатки в топливно-энергетическом комплексе Сурханского оазиса нашей страны с первой четверти XX века по 1960-е годы (советское время).

Целью исследования является раскрытие деятельности топливно-энергетической отрасли Сурханского оазиса на рубеже XX и XXI веков, а также процесса реформирования системы. В исследовании использовались методы сравнительно-исторического анализа, устной истории, хронологической последовательности и регионального подхода. Создание электроснабжения оазиса обосновывается в основном необходимостью обеспечения электроэнергией воинских частей приграничных территорий, речных портов, железнодорожных станций, населенных пунктов, где проживают русские, а также сведениями о повышении обороноспособности и земельно-водной реформе. Было установлено, что целью расширения электросети в оазисе является освоение новых земель и обеспечение электроэнергией водяных насосов для перекачивания воды на вновь осваиваемые земли, уделяя особое внимание процессам, связанным с хлопковым сырьем.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Ключевые слова: Энергетика, топливо, нефть, индустриализация, Ховдок, Три Красных, Какайди, Наркоматы, Энергетическая независимость.

THE ISSUE OF PERSONNEL IN THE FUEL AND ENERGY SECTOR IN THE SURKHAN OASIS (1925-1960)

Annotation: This article analyzes the personnel problems and shortcomings in the fuel and energy sectors of the Surkhan oasis in the period from the first quarter of the 20th century to the 60s of the 20th century (the Soviet era) based on archival materials and literature. The purpose of the study is to reveal the activities of the fuel and energy industry of the Surkhan oasis at the turn of the 20th-21st centuries, the process of reforms in the system. The methods of comparative historical analysis, oral history, chronological sequence and territorial approach were used in the research process. The formation of electricity in the oasis was mainly based on the provision of electricity to military units in border areas, river ports, railway stations, and settlements inhabited by Russians, as well as information on increasing defense potential and land and water reform. It was determined that the purpose of expanding the power grid in the oasis is to open up new lands and provide electricity to water pumps to pump water to newly developed lands, with a focus on processes related to cotton raw materials.

Key words: Energy, fuel, oil, industrialization, Khovdok, Uch kizil, Kakaydi, People's Commissars, Energy independence.

KIRISH. Jahonda yuz berayotgan globallashuv hamda integrallashuv sharoitida iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i-energetika majmuasining ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa dunyo aholisining ijtimoiy turmushida elektr energiyasi va yoqilg‘i mahsulotlariga bo‘lgan talab kun sayin oshib borishini hisobga olib, yoqilg‘i-energetika majmuasini barqaror rivojlanishining innovasion va infra tuzilmaviy mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada e'tibor qaratishni talab qilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoy va Germaniya kabi davlatlar o‘rtasida arzon va tugamaydigan energo resurslarni izlash va yangi yoqilg‘i sanoati konlarini topish borasida hamkorlik asosida ilmiy izlanishlar rivojlanmoqda.

Energetika iqtisodiyotning, umuman, taraqqiyotning "qon tomiri" hisoblanadi. Shu bois mazkur sohani rivojlantirish o‘ta dolzarb. Elektr energiyasi ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini tabiiy gaz, mazut va ko‘mir tashkil etmoqda. Mazkur ko‘rsatkich hozir 43 foizga teng va ularning narxi dunyo bozorida qimmatlashib borayotgani inobatga olinsa, uning ahamiyati yanada oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Respublikamiz hududida sanoatlashtirish (industrlashtirish) ning boshlanish davrida rivojlangan zamonaviy sanoat yo‘q, bor bo‘lgan sanoat korxonalarining ham texnik darajasi haddan tashqari past injenerlar, texniklar va zamonaviy texnikani biladigan malakali ishchilar nihoyatda yetishmas edi. Sovet davrida sanoat rivoji jihatidan respublikada 10 o'rinda turgan. Natijada xalq xo‘jaligini tiklash yetti-sakkiz yilga cho‘zilib ketdi. O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi mahalliy kishilari orasidan ko‘plab sanoat kadrlari tayyorlash bilan bog‘lab rivojlantirilib borildi. Respublikamizda sanoatning, ayniqsa og‘ir sanoatning yangi tarmoqlari vujudga kela boshladi. Bu nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarligi bo‘lgan yuqori ixtisosli kadrlarni talab qilardi. Shu vaqtda mahalliy millat

kishilaridan ixtisosli kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilishi, O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyatga ega edi.

O'zbekistonning sosialistik sanoati uchun yuzlab va minglab yuqori ixtisosli injenerlar, texniklar, ximiklar, elektriklar va boshqalar talab qilinardi. Lekin, bunday kadrlar o'sha vaqtda mutlaqo yetishmas edi. 1925-1930 yillar boshlarida ittifoq bo'yicha hammasi bo'lib, 57 ming nafar injener va 56 ming nafar texnik mutaxassislar ishlagan bo'lib, yana 84 ming nafar injener va 150 ming nafar texnik tayyorlash talab qilinar edi[1, 74].

Surxondaryo aholisi uchun bu mutaxassislik ham yangi kasb bo'lishi bu neft hududlarining uzoq joylarda ochilganligi, yotoqxonalar, shart-sharoitlar ham yo'qligi bu trest[2]ni kadrlar bilan ta'minlashga xalaqit berar edi. Sovet davrida sanoat rivoji jihatidan respublikada 10 o'rinda turar edi[3, 398]. Bu ishlarni hal qilish uchun bir qator ishlar olib borildi. Xovdak va Uchqizil neft konlarini ishchilar bilan ta'minlashga Jarqo'rg'ondan 200 kishini safarbar qilishi lozim edi. Boysundan 30 kishini o'rniga 8 kishi, Sheroboddan ham 30 kishi o'rniga 8 kishi, yettita tuman kasaba qo'mitalari esa 58 nafar komsomollarni Xovdak va Uchqizil neft konlariga ishga yubordi. Ammo ishchilarning ko'p qismi sharoit yo'qligi sababli qaytib ketdilar[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. 1929-yil 3-iyulga kelib, Markaziy hukumatning "Ixtisosli quruvchi ishchilar tayyorlash haqida" qarori qabul qilingan edi. Bu qarorda ishchi kadrlar ustidan nazorat va bu ishni rejalashtirish SSSR va ittifoqchi respublikalar mehnat xalq komissarliklari zimmasiga yuklatildi. Kadrlar bo'limlari kadrlar tayyorlashni rejalashtirishi, qisqa muddatli kurslar va texnikumlar barpo qilishda faol (aktiv) qatnashishi lozim edi. O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining maorif xalq komissarligi yo'li bilan bergan topshirig'i bo'yicha Buxoro va Andijonda 120 kishiga mo'ljallangan ishchi universitetlari barpo qilindi. Bu universitetlarda ijtimoiy-iqtisodiy, texnika va boshqa bo'limlar tuzildi. Mahalliy millatlardan sanoat kadrlari yetishtirish uchun Buxoroda ikki yillik tayyorlov kursi ochildi. Toshkentda 320 kishilik ishchi universiteti tashkil etildi. Qo'qonda 200 kishi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 40 kishilik qilib ana shunday ishchilar tayyorlaydigan universitetlar tashkil etildi[5, 78].

Kadrlar ko'nimsizligining oldini olish uchun ishchilarga sharoit yaratib berila boshlandi. Yangi binolar qurildi. O'zbekiston xalq komissarlari Sovetining yig'ilishida neft konlaridagi ishchilarga madaniy va maishiy xizmatni yaxshilash bo'yicha qaror qabul qilindi. O'z SSR xalq komissarligi neft konlarida maktablar ochish uchun binolarni tayyorlash, maktab o'quv qurollari bilan ta'minlash topshirildi va ishchilar uchun oshxonalar ochish ham taklif etildi. Savdo tarmoqlari uchun kerakli oziq-ovqat, sanoat mollari va madaniy mollar ajratildi[6].

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti 1929-yil sentyabrda "Ishchi universitetlarida, ishchi fakultetlarida va sanoat texnikumlarining kechki ishchi fakultetlarida o'qiyotganlarning ahvolini yaxshilash tadbirlari haqida" qaror qabul qildi. Unda ana shu joylarda o'qiyotganlarning ishlab chiqarishdagi ish vaqtini 6 soatgacha kamaytirish va kechki universitetlarda o'qiyotgan ishchilarga haftasiga uch marta, uzluksiz ishlaydigan korxonalarda ishlayotganlarga to'rt marta shunday vaqt belgilash ko'zda tutilgan. Shuningdek, bu qarorda imtihonlar topshirish uchun qisqa muddatli ta'tillar berish belgilandi[7].

Surxondaryo okrugida mavjud neft konlarida 1934- yildan boshlab, ishchilar uchun sharoitlar yaratishga bir muncha harakat qilina boshlandi. 1936-yilda Jarqo'rg'onda "Voroshilovneft" tashkiloti ishchilari uchun poliklinika qurildi. Bu davrda Xovdak neft konida bitta bino bo'lib, ishchilar uchun turar

joy yo‘q edi. O‘zbekiston Xalq Komissarlar Sovetining 1937-yil iyul oyida bo‘lgan yig‘ilishida neft konlari ishchilari uchun madaniy va maishiy xizmatni yanada yaxshilashga alohida e’tibor berildi. Mazkur yig‘ilishdan keyin Xovdak hamda Uchqizil neft konlarida kasalxona, bolalar bog‘chalari, oshxonalar ochishga e’tibor qaratildi. Shu yili Xovdakda neft koni ishchilari farzandlari uchun bolalar bog‘chasi qurib ishga tushirildi.

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarligiga neft konlarida maktablar ochish uchun binolarni tayyorlash, ularni o‘quv qurollari bilan ta’minlash yuklatildi. O‘zbekiston Ichki savdo Xalq Komissarligiga oshxonalar ochish taklif etildi. Savdo tarmoqlari uchun kerakli oziq-ovqat sanoat mollari va madaniy mollar ajratildi[8].

Hukumat topshirig‘iga asosan, Uchqizil neft konida kasalxona, tug‘ruqxona va bolalar bog‘chasi qurish uchun 127 ming 100 so‘m ajratildi. Xovdak neft konida esa 20 o‘rinli kasalxona va bitta bolalar bog‘chasi qurish uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 190 ming 900 so‘m mablag‘ xarajat qilindi[9].

Urushdan keyingi yillarda Lalmikor neft qidiruvchilari uchun 12 xonalik bino qurilib ishchilarga berilgan bo‘lsa, Jayronxona neftchilari uchun 4 ta yangi uy qurib berildi[10]. 1952-yilda Kakaydi qo‘rg‘onida neftchilar foydalanishlari uchun yozgi klub binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

O‘zbekistonda energotizim bo‘yicha ilk qadam 1909-yilda qo‘yilgan. Toshkentning Dizelnaya ko‘chasi bo‘ylab qatnovchi tramvay uchun 135 kVt. soatli dizel elektronstansiyasi ishga tushirildi. 1913-yilga kelib aholiga ham elektr energiyasi yetkazila boshlandi va ikki km.lik dastlabki tarmoq tortildi.

Surxondaryo energetika tizimida ham ishchi-xodimlarning bolalari uchun qurilgan bog‘chalar sharoitini yaxshilash va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Qumqo‘rg‘on GES[11]i qoshidagi 24 o‘rinli bolalar bog‘chasi uchun sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (masalan kartoshka) bozor narxida har bir kilogrammini 30-35 tiyindan sotib olishdi[12].

Urush yillari Surxon vohasi elektr tarmoqlari xodimlari nafaqat front orti, balki frontda ham haqiqiy vatanparvar ekanliklarini ko‘rsatdilar. Urushning birinchi kunlaridanoq ko‘plab Surxondaryo elektr tarmoqlari xodimlari ham qurolni qo‘llariga olib fashizmga qarshi bo‘ladigan qonli jangga otlandilar. Bunday kishilar jumlasiga N.P.Leskov, B.Z.Zaripov, N.I.Dyakonov, A.Qurbonov, A.Sh.Solixov, B.M.Shtaturin, N.G.Sunsev, A.A.Abduraximov, G.X.Xolto‘rayev, V.I.Semkin, M.X.Hakimov, X.X.Xudoyberdiyev, Ch.K.Karimov va boshqa jangchilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin[13].

1940-yilda o‘zining mehnat faoliyatini elektriklikdan boshlagan Leskov Nikolay Pavlovich ham 1941-1945 yillarda urush frontlarida jasorat ko‘rsatdi. Avtomatchi Anvar Qurbonov Sovet armiyasi safiga 1944 - yili chaqirilgach, u birinchi Belorussiya frontida Varshava va Berlinni ozod etishda qatnashdi. 1950 yilda armiya safidan bo‘shatilganidan so‘ng, Termiz shahar elektr tarmoqlarida ko‘p yillar elektro montyor bo‘lib ishladi[14]. Pulemyotchi A.Sh.Salixov 1942-1944 yillarda Germaniya frontida jang qildi. Urushdan keyin Jarqo‘rg‘on elektr tarmog‘ida ishladi. N.G.Sunsev esa 23-aloqa desant brigadasida razvedkachi bo‘lib, 1941-yil dekabridan 1945- yil may oyigacha shimoliy g‘arbiy frontdagi janglarda qatnashdi. Elektr mexanika syexida uzoq yillar slesar bo‘lib ishladi[15]. Shu davrda, insoniyat Ikkinchi jahon urushining og‘ir asoratlarini boshidan kechirdilar. Mana shunday qiyin bir davrda ham elektr tarmoqlari xodimlari o‘z vazifalarini sharaf bilan ado eta oldilar.

Mustaqillik yillarida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. 1993-yilning 1-dekabridan boshlab tarmoqda ishlovchi har bir ishchi xizmatchining o‘rtacha oylik maoshi 107 ming

so‘mdan oshib ketdi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining oshganligini hisobga olib, 1993-yilning oktyabrida har bir ishchiga 30 ming so‘mdan yordam puli berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 25-iyulda chiqargan farmoniga muvofiq ishchilarning avgust oyida oladigan o‘rtacha oylik ish haqi 667 so‘mni tashkil qildi[16]. Surxondaryo viloyati elektr tarmoqlari jamoasi ishchi va xodimlarining ish haqlari yil sayin o‘sib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yilda “Energetika mustaqilligi” ga erishganidan so‘ng elektr energeyasini ishlab chiqarish keskin oshdi[17, 12]. Bundan tashqari, 1995-yilda Surxondaryo elektr tarmoqlari xodimlarining sog‘lig‘ini yanada mustahkamlash uchun birinchi son Termiz shahar kasalxonasi yonida tarmoq xodimlarining yotib davolanishlari uchun to‘rt xonadan iborat to‘rtta koykaga kasallarga mo‘ljallangan shifoxona xonalari ta’mirlanib bo‘lindi.

Energetika sohasi vakillaridan Uchqizil suv ombori sohilida joylashgan “Energetik” dam olish maskanida har yili yoz oylarida 300 nafar xodim oila-a’zolari bilan dam oldi. 20 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo‘lgan 65 nafar nafaqadagilarga ish davridagi nafaqasiga qarab nafaqasiga qo‘shimcha 780 so‘mdan 1300 so‘mgacha qo‘shimcha pul berildi[18, 18-19].

XULOSA. Istiqlol yillarida viloyat yoqilg‘i energetika tarmog‘ida amalga oshirilgan islohotlarning yana bir yo‘nalishi bu gaz konida amalga oshirilgan ishlardir tarmoq xodimlarining unumli mehnatida ularga yaratilgan sharoit muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd qilganimizdek, ishchi va xizmatchilar uchun hamda ularning farzandlariga yaratib berilgan sharoit yildan-yilga neft va gaz ishlab chiqarish rejalarini muntazam bajarib kelayotgan ishchi-xodimlarni juda mamnun qilib kelmoqda. Natijada boshqarma uchastkalarida mahsulot ishlab chiqarishni yuqori suratda oshib borishga erishilmoqda.

Neft-kon sanoatini rivojlantirish Markazning sanoatni rivojlantirishning kompleks dasturi bo‘lib, respublika iqtisodiyotida yangi sohalarni va sanoat markazlarini vujudga keltirish, malakali ishchi kadrlarni tayyorlash va yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda ijtimoiy muammolarni hal etishni qamrab olgan edi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan bir vaqtda Surxondaryo viloyati elektr tarmoqlari ma’muriyati ham o‘z ishchi va xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni bugungi kunning asosiy ishiga aylantirib oldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika aholisini nafaqalar, stipendiyalar miqdorini oshirish to‘g‘risidagi farmonlari, Respublika energetika vazirligining shu maqsad uchun chiqargan qator buyruqlarida o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Мўминов Н.М. Советларнинг Ўзбекистонни саноатлаштириш учун кураши. - Тошкент, Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959. – Б. 74.
2. Trest (inglischa-trust)-korxonalar, firmalar birlashmasi.
3. Турсунов С. Қабулов Э. Ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. – Тошкент:"Шарқ", 2004. 398-бет.
4. Илғор Сурхон учун. 1937 йил, 2 август.
5. Мўминов Н.М. Советларнинг Ўзбекистонни саноатлаштириш учун кураши. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти. 1959- Б. 78.
6. Илғор Сурхон учун. 1937 йил, 9 сентябрь. 256-сон.
7. Илғор Сурхон учун. 1937 йил, 7 ноябрь.

8. Илғор Сурхон учун. 1937 йил, 20 июль.
9. Илғор Сурхон учун. 1937 йил, 12июль.
10. Илғор Сурхон учун. 1947 йил, 22 август.
11. GES-gidro(suv) elektr stansiyasi.
12. Ўз МА. 503-фонд, 1-ёзув, 53-йиғма жилд, 12-варақ.
13. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 503-фонд, 1-ёзув, 53-иш, 12 варақ.
14. Сурхондарё электр тармоқлари музейи материаллари. 1998 йил.
15. Сурхондарё электр тармоқлари музейи материаллари. 1998 йил.
16. Boboyeva S.R. "O'zbekistonda yoqilg'i energetika majmui tarixi" (XX-XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida) Termiz-2023. 105-b.
17. Тўраев Т., Эргашев К. Сурхондарё энергетикаси одимлари. – Қарши: "Насаф" 2015 йил, - Б 12.
18. Нурчинома (Ўзбекистон энергетиклар касаба уюшмасининг нашри). № 1, 1998. – Б. 18-19.